


KASBIY STANDART

Yer osti uran rudalarini qazib olish jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: kasbiy standart "Namuna oluvchi", "Geotexnologik quduqlar operatori", "Tekshiruvchi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

burg'i qudug'i – diametri uning chuqurligidan ancha kichik bo'lgan, har xil burchak ostida yer yuzasidan yoki yer osti lahmilaridan burg'ilanadigan aylana kesmali kon lahmi. Quduqni burg'ulash maxsus burg'ulash uskunalari yordamida amalga oshiriladi;

burg'ilanuvchanlik – tog' jinslarining burg'ilash asbobining kirib borishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyati yoki burg'ilash jarayonida paydo bo'ladigan kuchlar ta'sirida tog' jinslarida quduq hosil bo'lish intensivligi;

burg'ilash – maxsus jihozlar - burg'ulash uskunalari yordamida tog' jinslarini parchalash jarayoni;

burg'ilash ishlari – yer va tog' jinslarda quduqlarni yaratishga qaratilgan texnologik operatsiyalar to'plami;

dinamik suv sathi – suv osti elektr nasosning ishlash jarayonida quduqning suv sathi chuqurligi;

foydali qazilma koni – miqdori va sifati jihatidan o'zlashtirish obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan, tarkibida foydali qazilmalar mavjud yer qa'ri uchastkasi;

geotexnologik kon – maxsus hujjat bilan ajratilgan yer usti maydoni bo'lib u joydagi konni ishlatuvchi konchilik korxonasi, tarkibida bir necha ishlab chiqarish birligidan (geotexnologik uchastkalar, eritmalarni qayta ishlash uchastkasi va

yordamchi - xizmat ko'rsatuvchi uchastkalar) iborat konchilik korxonasi. Geotexnologik kon korxona sifatida yagona ma'muriy-texnikaviy boshqarmaga ega; granulometrik sinov – elaklar yordamida materialning zarracha o'lchamlarini aniqlash;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kon massasi – foydali qazilma konlarini o'zlashtirish jarayonida hosil bo'lgan maydalangan tog' jinslari to'plami;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konni ochish – Kon ishlari uchun xizmat ko'rsatadigan tayyorlov tog' lahmlarini o'tish imkonini beradigan yer yuzasidan butun konga yoki uning bir qismiga chiqishni ta'minlaydigan kapital kon lahmlarini o'tish;

ma'danli massa – Ma'danli konlarini o'zlashtirish jarayonida hosil bo'lgan ma'dan va tog' jinslarining umumiy massasi;

ma'dansiz tog' jinslari – Tarkibida ma'dan minerallari mavjud bo'lmagan tog' jinslari;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni

mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

reklamatsiya — iste'molchi tomonidan mahsulotlar yoki xizmatlarning sifatsizligi haqida da'vosi;

statik suv sathi — turg'un holatda, ya'ni suv osti elektr nasos o'chirilgan holatda yer yuzasidan quduqdagi suv sathigacha bo'lgan masofa;

tayyor mahsulot — texnologik ishlov berishning barcha bosqichlaridan o'tgan, amaldagi standartlar yoki texnik shartlarga javob beradigan va Korxona tomonidan ishlab chiqiladigan yakuniy mahsulot;

texnologik reglament — ishlab chiqarish usullari, texnik vositalar, texnologik standartlar, shartlar va texnologik jarayonni amalga oshirishning batafsil tartibini belgilaydigan korxonaning ichki foydalanish uchun me'yoriy hujjati;

yarim tayyor mahsulot — dastlabki ishlov berish jarayonida xom ashyodan olingan va tayyor mahsulotga aylantirish uchun qo'shimcha texnologik jarayonlarga muhtoj bo'lgan mahsulot.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi", (IFUT-2.1), O'zMSt 640:2025;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi "Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori" (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR — Tarmoq malakalar ramkasi

IFUT — Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

ShHV — shaxsiy himoya vositalari;

O'zMSt —O'zbekiston milliy standarti.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Yer osti uran rudalarini qazib olish jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash yordamida qazib olishda asosiy va yordamchi ishlarni bajarish, kimyoviy reagentlar yordamida yer qa'ridan ishqorlash yordamida uran qazib olish
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	B seksiya: Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash; 05 Ko'mir va lignit qazib olish; 05.1 Toshko'mir qazib olish; 05.10 Toshko'mir qazib olish; 05.10.0 Toshko'mir qazib olish; 06 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish; 06.1 Xom neft qazib olish; 06.10 Xom neft qazib olish; 06.10.0 Xom neft qazib olish; 06.2 Tabiiy gaz qazib olish; 06.20 Tabiiy gaz qazib olish; 06.20.0 Tabiiy gaz qazib olish; 07 Metall rudalarini qazib olish; 07.2 Rangli metall rudalarini qazib olish; 07.21 Uran va toriy rudalarini qazib olish; 07.21.0 Uran va toriy rudalarini qazib olish; 07.29 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish; 07.29.0 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish; 08 Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat; 08.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan bog'liq faoliyat; 08.91 Kimyo sanoati va o'g'itlar ishlab chiqarish uchun mineral xom ashyolar qazib olish; 08.91.0 Kimyo sanoati va o'g'itlar ishlab chiqarish uchun mineral xom ashyolar qazib olish; 08.92 Torf qazib olish; 08.92.0 Torf qazib olish; 08.93 Tuz qazib olish; 08.93.0 Tuz qazib olish; 08.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyat; 08.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyat; 09 Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar; 09.1 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar; 09.10 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar; 09.10.0 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar; 09.9 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish;

		09.90 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish; 09.90.0 Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Yer osti uran konlarida qazib olish jarayonlarini rejalashtirish, texnologik operatsiyalarni nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, mehnat va radiatsion xavfsizlikni ta'minlash hamda ekologik talablarga rioya etish bo'yicha mehnat funksiyalari va malaka talablarini qamrab olish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		75439010 Namuna oluvchi	2
		81133005 Geotexnologik quduqlar operatori	3
		82190050 Tekshiruvchi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	75439010 Namuna oluvchi	A1.2	Jarayonlarda texnologik materiallarning namunalarini tanlash va tayyorlash	A1.01.2	Texnologik jarayonlarda namuna olish
				A1.02.2	Texnologik jarayonlarda materiallarning namunalarini tayyorlash
2	81133005 Geotexnologik quduqlar operatori	B1.3	Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olishda asosiy va yordamchi ishlarni bajarish	B1.01.3	Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olish jarayonida asosiy ishlarni amalga oshirish
				B1.02.3	Qazib olish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun yordamchi ishlarni bajarish
		B2.3	Kimyoviy reagentlar yordamida yer qa'ridan uran va boshqa foydali qazilmalarni ishqorlash jarayonini boshqarish va sifatini nazorat qilish	B2.01.3	Kimyoviy reagentlar yordamida yer qa'ridan uran va boshqa foydali qazilmalarni ishqorlash jarayonini rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish
				B2.02.3	Ishqorlash jarayonining texnologik tartibga va sifat standartlariga mosligini kuzatish, sifatini tekshirish va nazorat qilish
3	82190050 Tekshiruvchi	D1.3	Ishlab chiqarish uchun yetkazib beriladigan kimyoviy reagentlar va materiallarni sifat bo'yicha qabul qilish hamda yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishida texnologik jarayonlarga rioya etilishini nazorat qilish va sifatini tekshirish	D1.01.3	Kimyoviy reagentlar va materiallardan namunalar olish, belgilangan talablar asosida sifat ko'rsatkichlarini tekshirish va qabul natijalarini rasmiylashtirish
				D1.02.3	Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida texnologik rejimlarga rioya etilishini kuzatish, sifat nazoratini amalga oshirish va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosa berish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Namuna oluvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	75439	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan bo'lishi, erkak (ayol); Ishga joylashishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tishi va keyinchalik belgilangan tartibda davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi; O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish; Turli geologik muhitlardan namunalarni to'g'ri va xavfsiz olish; Namunalarni saqlash, markalash va transport qilish qoidalariga rioya etish; Olingan namunalarni sifatli tayyorlash va laboratoriyaga topshirish; Ish jarayonida zamonaviy asbob-uskunalar va o'lchov vositalaridan foydalanish; Ish xavfsizligi va mehnat gigiyenasiga rioya qilish; Diqqat-e'tibor va aniqlik bilan ishlash qobiliyati; Mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va ishni belgilangan muddatda bajarish; Jamoadi samarali ishlash va boshqalar bilan muloqot qilish; Muammolarni mustaqil aniqlash va hal etish qobiliyati; O'rganishga ochiqlik va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtira olish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-5 razryadli Namuna oluvchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Asl va nodir elementlarni ajratish apparatchisi
	2	Omborchi
	3	Kimyoviy tahlil laboranti

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 - Jarayonlarda texnologik materiallarning namunalarini tanlash va tayyorlash	A1.01.2 - Texnologik jarayonlarda namuna olish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik jarayon sxemasi va namuna olish yo'riqnomasi bilan tanishish hamda namuna olinadigan nuqtani va vaqtini aniqlash
		2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish, Namuna olish asbob-uskunalarining sozligini tekshirish
		3. Bosim yoki vakuum ostida respirator va asboblardan foydalangan holda namuna oluvchilar va maxsus qurilmalar yordamida agressiv moddalar, eritmalardan namuna olish
		4. Namuna olish jarayonida materialning tarkibi va holatini buzmaslik
		5. Laborant nazorati ostida namunalarni tahlil qilish va mexanik sinovlarni o'tkazish
		6. Namunaning ifloslanishi yoki yo'qolishining oldini olish
		7. Namunalarni yopish, ular uchun yorliqlar tayyorlash, ularni laboratoriyaga xavfsiz yetkazib berishni ta'minlash
		8. Kimyoviy analitik namunalar oldidan ishlov berish, tanlangan va qayta ishlangan namunalarni hisobga olish va tegishli hisobotlarni tuzish
		9. Namuna olish uchun ishlatiladigan shisha idishlarni yuvish va saqlash
		10. Namunani laboratoriyaga topshirish
		Ko'nikmalar:
		Texnologik jarayonning belgilangan nuqtalaridan namuna olishni amalda bajara olish
		Namuna olish usullari va ketma-ketligiga rioya etish
		Namuna olishda maxsus asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Olingan namunalarni to'g'ri idishlarga joylash va markalash
		Namuna olish jarayonida texnika xavfsizligi va sanitariya qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonlarning sxemasi, bosqichlari va ishlash prinsiplari
		Xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning fizik-kimyoviy xossalari
		Namuna olish turlari: nuqtaviy, qatlamli, uzluksiz, kombinatsiyalangan
		Namuna hajmi, miqdori va chastotasini aniqlash qoidalari
		Namunalarni saqlash qoidalari

		Avtomatik namuna oluvchilar va bo'lish uchun uskunalarni ishlash prinsipi
		Bosim yoki vakuum ostidagi qurilmalardan agressiv va zaharli moddalardan namuna olish qoidalari va usullari
		Kalibrlash jadvallaridan foydalanish qoidalari
		Zaharli va yonuvchan moddalar bilan ishlash qoidalari
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglamentlari talablari
		Xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari
	A1.02.2 - Texnologik jarayonlarda materiallarning namunalarini tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Namuna tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma va standartlar bilan tanishish
		2. Ish joyini va zarur asbob-uskunalarni tayyorlash
		3. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish
		4. Namuna idishlari va markalash vositalarini tayyorlash
		5. Olingan namunani tashqi aralashmalardan tozalash
		6. Yirik fraksiyalarni maydalash yoki kesish
		7. Tahlil uchun talab etilgan fraksiyani ajratib olish
		8. Nosozlik alomatlarini aniqlash va ishni to'xtatish
		9. Namuna tarkibining o'zgarib ketishiga yo'l qo'ymaslik
		10. Asbob-uskunalarni tozalash va ish joyini tartibga keltirish
		Ko'nikmalar:
		Olingan namunani tahlil va nazoratga tayyorlash jarayonini rejalashtirish
		Namunaning tarkibini o'zgartirmasdan maydalash, aralashtirish va qisqartirish (kvartirovka) usullarini qo'llay olish
		Mexanik maydalagichlar, elaklar, aralashtirgichlar va boshqa asbob-uskunalarni xavfsiz ishlata olish
		Asbob-uskunalarni tozalash va texnik xizmat ko'rsatish
		Namuna tarkibining bir xilligini (gomogenligini) ta'minlay olish
		Namunaning laboratoriya talablariga muvofiq to'g'ri fraksiya va massaga ega bo'lishini ta'minlash
		Mehnat muhofazasi va sanoat, radiatsion xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Tayyorlangan namunalarni markalash, qadoqlay olish va saqlash
		Namuna tayyorlash jarayoni bo'yicha hisob va jurnalni to'g'ri yuritish

		Bilimlar:
		Turli materiallarning kimyoviy, fizik va mineralogik xususiyatlari
		Materiallarning tahlil jarayonida o'zgarish ehtimoli
		Har bir tahlil turiga mos tayyorlash usullari
		Standartlar va me'yoriy hujjatlar bo'yicha namunani tayyorlash qoidalari
		Radioaktiv, toksik yoki zararli moddalar bilan ishlash qoidalari
		Namuna tayyorlash va saqlashda atrof-muhitni himoya qilish choralari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Namunalarning to'g'ri tanlanishi, belgilangan tartibda tayyorlanishi va markalanishi uchun javobgar
		2. Texnologik jarayonlarga xalaqit bermasdan namuna olish qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul
		3. Olingan namunalarning sifati va saqlanish holati uchun javobgar
		4. Mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishi uchun mas'ul
		5. Belgilangan yo'riqnoma va topshiriqlar asosida namunalarni mustaqil tanlash va tayyorlash
		6. Oddiy texnologik jarayonlarda namuna olish ishlarini bevosita rahbarsiz bajarish
		7. Jarayonda yuzaga keladigan oddiy og'ishlarni aniqlab, bu haqda mas'ul shaxsga axborot berish
		8. Namunalarni topshirish va rasmiylashtirish ishlarini mustaqil amalga oshirish
	Texnik va/yoki texnologik talab:	
	Texnologik jarayonlarda namuna olish tartibi va usullarini bilish zarur;	
	Namuna olishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar va o'lchov vositalaridan to'g'ri foydalanish shart;	
	Texnologik materiallardan namuna tanlash, ajratish va tayyorlash qoidalariga rioya etish lozim;	
	Olingan namunalarni markalash, saqlash va topshirish talablarini bajarish kerak;	
	Mehnat muhofazasi, sanoat va ekologik xavfsizlik qoidalariga amal qilish shart;	
	Ishlab chiqarish hujjatlari va belgilangan texnologik ko'rsatkichlar asosida ishlash zarur;	
	Aniqlik, izchillik va texnologik intizomni ta'minlash lozim;	
	Texnologik jarayonlarda namuna olish tartibi va usullarini bilish zarur.	
	Namuna olish uchun maxsus probirkalar va konteynerlar;	
	Qo'l va mexanik namuna olgichlar;	
	O'lchov idishlari (menzurka, silindr);	
	Tarozi (texnik va laboratoriya);	
	Elaklar va maydalash moslamalari;	
	Belgilash va markalash vositalari;	
	Himoya vositalari: qo'lqop, niqob, ko'zoynak, maxsus kiyim; Namunalarni saqlash va tashish qutilari;	
	Asosiy o'lchov asboblari.	

Kasbning nomi:	Geotexnologik quduqlar operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	81133	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar:	18 yoshga to'lgan bo'lishi, erkak (ayol); Ishga joylashishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tishi va keyinchalik belgilangan tartibda davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi; O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish; Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olishni bajarish; Asosiy va yordamchi ishlarni texnologik tartibga to'liq rioya qilgan holda bajarish; Kimyoviy reagentlar yordamida ishqorlash jarayonini boshqarish va sifatini nazorat qilish; Ish jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalarni xavfsiz va to'g'ri qo'llash; Texnologik hujjatlar va standartlarga rioya qilgan holda ishlarni mustaqil tashkil etish; Ishda yuqori darajada mas'uliyatli bo'lish; Murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va ishni belgilangan muddatda bajarish; Jamoada samarali ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish; Texnologik muammolarni mustaqil aniqlash va hal etish; Yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish va o'z ish faoliyatida qo'llash.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	4-6-razryadli Geotexnologik quduqlar operatori	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Quduqlarni yerosti ta'mirlash bo'yicha operator
	4	Asl va nodir elementlarni ajratish apparatchisi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 - Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olishda asosiy va yordamchi ishlarni bajarish	B1.01.3 - Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olish jarayonida asosiy ishlarni amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Quduqlarni tayyorlash va ishqorlash jarayonini boshlash
		2. Ishqorlash rejasiga muvofiq ishlov berish
		3. Ishqorlash jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalarni ishga tayyorlash, to'g'ri ishlatish va monitoring olib borish
		4. Uranni yer ostida ishqorlash jarayonini texnologik tartibga va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirish
		5. Texnologik magistral va taqsimlash quvurlari, nasos ulanishlari va eritmalar yetkazib beruvchi quvurlar holatini tekshirish, nuqsonlar va mumkin bo'lgan oqishlarni aniqlash
		6. O'chirish klapanlari, himoya panjaralari va sig'imli uskunalarning xizmat ko'rsatish qobiliyatini nazorat qilish
		7. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli xulosalar berish va rasmiylashtirish
		8. Quduqlarni tayyorlash va ishqorlash jarayonini boshlash
		Ko'nikmalar:
		Quduqlarni tayyorlash va ishqorlash jarayonini boshqara olish
		Ishqorlash rejasiga muvofiq reagentlarni to'g'ri solish va quduqlarni nazorat qilish
		Ishqorlash jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalarni to'g'ri ishlatish va monitoring olib borish
		Texnologik magistral, quvurlar, nasoslar va o'chirish klapanlarini tekshira olish
		Texnologik tartib va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlarni amalga oshirish
		Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosa berish va tegishli rasmiylashtirishni bajara olish
		Bilimlar:
		Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash texnologiyasi asoslari
		Ishqorlash jarayonida foydalaniladigan kimyoviy reagentlar va ularning xususiyatlari
		Quduqlar va texnologik maydonlarda ishlatiladigan asbob-uskunalar, quvurlar va nasoslarning ishlash prinsiplari
		Texnologik tartiblar, ish xavfsizligi va shaxsiy himoya qoidalar
		Ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va bartaraf etish usullari
		Ishlarni rasmiylashtirish va sifat nazoratini amalga oshirish tartiblar
		Mehnat harakatlari:
		1. Qazib olish jarayonida foydalaniladigan yordamchi asbob-uskunalar va materiallarni tayyorlash
		2. Texnologik maydonlarda yordamchi ishlarni bajarish
		3. Kimyoviy reagentlarni tashish, joylashtirish va berish jarayonlarida ishtirok etish

	B1.02.3 - Qazib olish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun yordamchi ishlarni bajarish	4. Texnologik quvurlar, nasoslar va yordamchi uskunalar holatini kuzatish
		5. Asosiy ishlar bajarilishini ta'minlash uchun ish joyida tartib va xavfsizlikni saqlash
		Ko'nikmalar:
		Yordamchi ishlarni texnologik ketma-ketlikda bajarish
		Asbob-uskunalar va materiallardan to'g'ri foydalanish
		Texnologik jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda jamoa bilan hamkorlikda ishlay olish
		Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda yordamchi ishlarni bajarish
		Aniqlangan nosozliklar haqida mas'ul shaxslarga o'z vaqtida xabar berish
		Bilimlar:
		Qazib olish jarayonida bajariladigan yordamchi ishlarning mazmuni va tartibi
		Yordamchi asbob-uskunalar va materiallarning vazifalari
		Texnologik maydonlarda ish xavfsizligi va shaxsiy himoya qoidalar
		Qazib olish jarayonini qo'llab-quvvatlashda yordamchi ishlarning ahamiyati
		Ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari va ularni oldini olish choralari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Yer osti ishqorlash jarayonida asosiy va yordamchi ishlarning belgilangan texnologik tartibda bajarilishi uchun mas'ul hisoblanadi
		2. Ish jarayonida asbob-uskunalar, kimyoviy reagentlar va texnologik maydonlarning holati uchun javobgar bo'ladi
		3. Texnologik va xavfsizlik talablariga rioya etilishi uchun mas'uliyatni oladi
		4. Belgilangan topshiriqlar doirasida asosiy va yordamchi ishlarni mustaqil bajaradi
		5. Ish jarayonida yuzaga keladigan oddiy texnologik muammolarni mustaqil aniqlaydi va bartaraf etadi
		6. O'z vakolati doirasida qaror qabul qiladi hamda mas'ul shaxslarga axborot beradi
B2.3 - Kimyoviy reagentlar yordamida yer qa'ridan uran va boshqa foydali qazilmalarni ishqorlash jarayonini boshqarish va	B2.01.3 - Kimyoviy reagentlar yordamida yer qa'ridan uran va boshqa foydali qazilmalarni ishqorlash jarayonini rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Yer osti ishqorlash jarayonini amalga oshirish uchun texnologik hujjatlar va ish rejalarini o'rganish
		2. Ishqorlash jarayonida qo'llaniladigan kimyoviy reagentlar (sulfat kislota va boshqalar) turlarini, konsentratsiyasini va sarf me'yorlarini aniqlash
		3. Quduqlarga reagentlarni yuborish sxemasini belgilash va ishqorlash jarayonini boshlash
		4. Reagentlarni quduqlarga berish jarayonini boshqarish va texnologik rejimlarga rioya etilishini ta'minlash
		5. Quduqlarda ishqorlash jarayonining borishini doimiy monitoring qilish

sifatini nazorat qilish		6. Olingan eritmalarni yig'ish va texnologik ko'rsatkichlarini nazorat qilish
		7. Texnologik jarayonda aniqlangan og'ishlar va nosozliklar bo'yicha tezkor choralar ko'rish
		8. Ishqorlash jarayoni yakunlari bo'yicha natijalarni qayd etish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Yer osti ishqorlash texnologik jarayonlarini amalda rejalashtirish va boshqara olish
		Kimyoviy reagentlar bilan xavfsiz va to'g'ri ishlay olish
		Quduqlar orqali reagentlarni yuborish va eritmalarni chiqarib olish jarayonini nazorat qilish
		Texnologik asbob-uskunalar, quvurlar va nasoslardan samarali foydalanish
		Jarayon monitoringi natijalarini tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish
		Aniqlangan texnologik kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish
		Ish jarayonlarini belgilangan hujjatlar asosida rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash usuli bilan qazib olish texnologiyasi asoslari
		Ishqorlash jarayonida foydalaniladigan kimyoviy reagentlar, ularning xossalari va ta'sir mexanizmi
		Quduqlar tizimi, reagentlarni berish va eritmalarni yig'ish sxemalari
		Texnologik rejimlar, ularning asosiy ko'rsatkichlari va nazorat usullari
		Texnologik asbob-uskunalar, quvurlar va nasoslarning ishlash prinsiplari
		Ishlab chiqarish xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari
		Texnologik jarayonlarda yuzaga keladigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari
B2.02.3 - Ishqorlash jarayonining texnologik tartibga va sifat standartlariga mosligini kuzatish, sifatini tekshirish va nazorat qilish		Mehnat harakatlari:
		1. Ishqorlash jarayoni uchun belgilangan texnologik rejimlar (bosim, sarf, konsentratsiya, vaqt) bilan tanishish
		2. Quduqlarda ishqorlash jarayonining borishini doimiy kuzatish va monitoring qilish
		3. Kimyoviy reagentlarning konsentratsiyasi va eritmalar tarkibini belgilangan jadval asosida tekshirish
		4. Texnologik ko'rsatkichlarning loyiha va texnologik hujjatlarga muvofiqligini solishtirish
		5. Oqartirilgan eritmalar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlardan namunalar olish

		6. Namuna natijalarini baholash va sifat ko'rsatkichlari bilan taqqoslash
		7. Texnologik chetlanishlar, nosozliklar va sifat buzilishlarini aniqlash
		8. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha mas'ul shaxslarga xabar berish va choralar ko'rish
		9. Nazorat natijalarini belgilangan tartibda hujjatlashtirish va rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ishqorlash jarayonining asosiy texnologik ko'rsatkichlarini kuzatish va to'g'ri tahlil qilish
		Kimyoviy eritmalar va reagentlar sifatini amaliy usullar bilan tekshira olish
		Texnologik hujjatlar va sifat standartlari bilan ishlay olish
		Monitoring asboblari va o'lchov vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Texnologik og'ishlarni o'z vaqtida aniqlay olish va baholash
		Sifat nazorati natijalarini rasmiy hujjatlar orqali to'g'ri qayd etish
		Bilimlar:
		Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash texnologiyasi asoslari
		Ishqorlash jarayonida qo'llaniladigan kimyoviy reagentlar va ularning xossalari
		Texnologik rejimlar, sifat ko'rsatkichlari va me'yoriy talablar
		Sifat nazorati usullari va namunalar bilan ishlash qoidalari
		Ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasi va ekologik talablar
		Texnologik jarayonlarda yuzaga keladigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Kimyoviy reagentlar yordamida ishqorlash jarayonining belgilangan texnologik tartibda olib borilishi uchun javobgar bo'ladi
		2. Ishqorlash jarayonida reagentlar sarfi, konsentratsiyasi va berilish ketma-ketligining texnologik talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi
		3. Yer qo'ridan uran va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida sifat ko'rsatkichlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun mas'ul hisoblanadi
		4. Ishqorlash jarayonida aniqlangan texnologik og'ishlar, nosozliklar va sifat buzilishlari bo'yicha o'z vaqtida xulosa berish va tegishli choralar ko'rilishi uchun javobgar bo'ladi
		5. Sifat nazorati natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va hisobotlarni yuritish uchun mas'ul hisoblanadi
		6. Ishqorlash jarayonini boshqarishda belgilangan texnologik yo'riqnomalar asosida mustaqil faoliyat yuritadi

		7. Kimyoviy reagentlar bilan bog'liq ishlarni bajarishda texnologik rejimlarga rioya etgan holda mustaqil qarorlar qabul qiladi 8. Ishqorlash jarayonida yuzaga keladigan texnologik nosozliklarni mustaqil aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi 9. Sifat nazorati jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha mustaqil xulosa beradi va takliflar ishlab chiqadi 10. Ish jarayonini xavfsizlik talablari va sifat standartlariga muvofiq holda mustaqil tashkil etadi
	Texnik va/yoki texnologik talab	Yer osti ishqorlash jarayonida foydalaniladigan quduqlar, nasoslar, quvurlar va sig'imli uskunalarning texnik holatini bilish va nazorat qilish zarur; Asbob-uskunalarini ishga tayyorlash, sozlash va texnik nosozliklarni aniqlash lozim; O'lchov va nazorat vositalaridan (bosim, sarf, pH, konsentratsiya) to'g'ri foydalanish shart; Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va texnika xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilish kerak; Texnologik hujjatlar, yo'riqnomalar va ish buyurtmalari bilan ishlash zarur; Uran va boshqa foydali qazilmalarni yer osti ishqorlash texnologiyasini amalda qo'llash zarur; Ishqorlash jarayonida kimyoviy reagentlarni belgilangan texnologik rejimlarga muvofiq qo'llash lozim; Qududlarga eritma berish va qaytarib olish jarayonlarini texnologik tartib asosida boshqarish shart; Ishqorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash va texnologik chetlanishlarni aniqlash kerak; Ishlab chiqarish jarayonida sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish va belgilangan standartlarga muvofiqligini ta'minlash zarur; Aniqlangan texnologik nosozliklar va kamchiliklar bo'yicha tegishli choralarni ko'rish va xulosalar berish lozim. Texnologik uskunarlar: geotexnologik (ishqorlash) quduqlari, eritma yuborish va chiqarish nasoslari, texnologik magistral va taqsimlash quvurlari, reagentlarni saqlash uchun sisternalar va rezervuarlar; Nazorat va o'lchov asboblari: bosim o'lchagichlar (manometrlar), sarf o'lchagichlar (debitomerlar), pH-metrlar va kimyoviy analizatorlar, harorat va zichlik o'lchash asboblari; Yordamchi va xavfsizlik vositalari: o'chirish klapanlari va armaturalar, texnologik maydonlarning himoya panjaralari, texnik xizmat ko'rsatish uchun qo'l asboblari; Shaxsiy himoya vositalari: maxsus kiyim, qo'lqop, respirator, ko'zoynak.

Kasbning nomi:	Tekshiruvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	82190	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan bo'lishi, erkak (ayol); ishga joylashishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tishi va keyinchalik belgilangan tartibda davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi; mustaqil qaror qabul qilish; kimyoviy reagentlar, materiallar hamda yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning sifatini tekshirish; texnologik jarayonlarning belgilangan talab va reglamentlarga muvofiqligini nazorat qilish; o'lchov va nazorat asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish; sifat nazorati natijalarini hujjatlashtirish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish; ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi va sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; mas'uliyatli va javobgar bo'lib ishlash qobiliyati; diqqat-e'tibor va aniqlik bilan tekshiruvlarni amalga oshirish; mustaqil qaror qabul qilish va xulosalar chiqarish qobiliyati ega bo'lish; intizomli bo'lish va texnologik tartiblarga qat'iy rioya qilish; jamoalar bilan samarali ishlash va ishlab chiqarish xodimlari bilan muloqot qilish. mehnat va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; favqulodda vaziyatlarda choralari ko'rish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	4-6-razryadli Tekshiruvchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Qizdirish apparatchisi
	2	Quyuvchi-to'kuvchi
	2	Omborchi
	3	Kimyoviy tahlil laboranti
	4	Asl va nodir elementlarni ajratish apparatchisi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3 - Ishlab chiqarish uchun yetkazib beriladigan kimyoviy reagentlar va materiallarni sifat bo'yicha qabul qilish hamda yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishida texnologik jarayonlarga rioya etilishini nazorat qilish va sifatini tekshirish	D1.01.3 - Kimyoviy reagentlar va materiallardan namunalar olish, belgilangan talablar asosida sifat ko'rsatkichlarini tekshirish va qabul natijalarini rasmiylashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish o'rnini, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini ishga tayyorlash
		2. Smenani qabul qilish va topshirishda smena ishlab chiqarish topshiriqlari to'g'risida ma'lumot olish (ma'lumot berish)
		3. Kimyoviy reagentlar va materiallarni me'yoriy hujjatlar va yuriqnomalar talablariga muvofiq o'z vaqtida va sifatli qabul qilish nazorati bo'yicha ishlarni bajarish
		4. Namunalarni olish, bo'lish, qayta ishlash, o'rash, markalash, yetkazib berish va saqlash
		5. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida texnologik reglamentlarni talablarini nazorat qilish
		6. O'lchov uskunolari, avtomatik namuna olish moslamalar va markalash uskunalar holatlari va ishlashini nazorat qilish
		7. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'lchash, markalash va qadoqlashni nazorat qilish.
		8. Granulometrik va maxsus jihozlarni talab qilmaydigan boshqa sinovlarni o'tkazish
		9. Idishlar va qadoqlash materiallari sifatini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Kimyoviy reagentlar va materiallardan belgilangan tartibda va xavfsiz usulda namunalar olish
		Namunalarni to'g'ri markalay olish, saqlash va tahlilga tayyorlash
		Sifat ko'rsatkichlarini amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tekshirish
		O'lchov va nazorat asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Tekshiruv natijalarini qayd etish va qabul hujjatlarini belgilangan shaklda rasmiylashtirish
		Ish jarayonida mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Kimyoviy reagentlar, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar uchun texnik shartlar va talablar
		Avtomatik namuna oluvchilar va bo'lish uchun uskunalarni ishlash prinsipi
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'lchash, qadoqlash va markalash qoidalari
		Kalibr lash jadvallaridan foydalanish qoidalari

		Tovar moddiy boyliklari saqlash bo'yicha amaldagi qoidalar va ko'rsatmalardagi talablari
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglamentlari talablari
		Xavfsizlik qoidalar, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalar
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalar
D1.02.3 - Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida texnologik rejimlarga rioya etilishini kuzatish, sifat nazoratini amalga oshirish va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosa berish		Mehnat harakatlari:
		1. Ish o'rnini, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini ishga tayyorlash
		2. Smenani qabul qilish va topshirishda smena ishlab chiqarish topshiriqlari to'g'risida ma'lumot olish yoki ma'lumot berish
		3. Kimyoviy reagentlar va materiallarni me'yoriy hujjatlar va yuriqnomalar talablariga muvofiq o'z vaqtida va sifatli qabul qilish nazorati bo'yicha ishlarni bajarish
		4. Namunalarni olish, bo'lish, qayta ishlash, o'rash, markalash, yetkazib berish va saqlash
		5. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida texnologik reglamentlarni talablarini nazorat qilish
		6. O'lchov uskunalar, avtomatik namuna olish moslamalar va markalash uskunalar holatlari va ishlashini nazorat qilish
		7. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'lchash, markalash va qadoqlashni nazorat qilish.
		8. Granulometrik va maxsus jihozlarni talab qilmaydigan boshqa sinovlarni o'tkazish
		9. Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida mahsulot sifati va texnologik reglamentlarga muvofiqligini nazorat qilish
		10. Mahsulot sifati, qadoqlash va markalashning texnik shartlarga muvofiqligi to'g'risida xulosalar berish
		11. Iste'molchilarning reklamatsiyalar va shikoyatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish
		12. Sifatsiz mahsulotlar uchun reklamatsiyalarni rasmiylashtirish
		13. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni sinovlardan o'tkazib sifati to'g'risida xulosalar berish
		Ko'nikmalar:
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida belgilangan texnologik rejimlarni kuzatish
		Texnologik ko'rsatkichlarni o'lchash va nazorat asboblari orqali tekshirish
		Sifat nazorati jarayonida aniqlangan chetlanish va kamchiliklarni aniqlash

		Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosa tayyorlash va rasmiylashtirish
		Sifat nazorati natijalarini ishlab chiqarish hujjatlarida to'g'ri qayd etish
		Texnologik jarayonlar va sifat talablariga rioya etilishini ta'minlash
		Bilimlar:
		Kimyoviy reagentlar, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar uchun texnik shartlar va talablar
		Avtomatik namuna oluvchilar va bo'lish uchun uskunalarni ishlash prinsipi
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'lchash, qadoqlash va markalash qoidalari
		Kalibrlash jadvallaridan foydalanish qoidalari
		Tovar moddiy boyliklari saqlash bo'yicha amaldagi qoidalar va ko'rsatmalardagi talablari
		Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglamentlari talablari
		Tayyor mahsulotlarni sinovlardan o'tkazish tartibi va mahsulotlarga ilova qilinadigan hujjatlarini rasmiylashtirish muddatlari
		Xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishlab chiqarish jarayonida kimyoviy reagentlar va materiallarning sifat ko'rsatkichlariga javob berishini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi
		2. Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishida texnologik jarayonlarga rioya etilishini kuzatish va sifat nazoratini amalga oshirish mas'uliyatini oladi
		3. Aniqlangan kamchiliklar va sifat buzilishlari bo'yicha tegishli xulosalarni berish va rasmiylashtirishga mas'uliyat bilan yondoshadi
		4. Ish jarayonini mustaqil tashkil etish va belgilangan texnologik tartibga rioya qiladi
		5. Sifat nazorati va muammolarni aniqlashda mustaqil qarorlar qabul qiladi
		6. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan texnologik xatoliklarni mustaqil aniqlash va tegishli choralarni ko'radi

Texnik va/yoki texnologik talab	Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalarini to'g'ri va xavfsiz ishlatish zarur; O'lchov va nazorat vositalarini anqlik bilan qo'llash shart; Ish joyini texnik jihatdan tayyorlash va asbob-uskunalarini ishga tayyor holda saqlash lozim; Kimyoviy reagentlar va materiallardan namunalarni olish va sifat ko'rsatkichlarini tekshirish texnologiyasiga rioya etish zarur; Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishida belgilangan texnologik rejimlarga rioya qilish kerak; Aniqlangan sifat kamchiliklarini qayd etish va rasmiylashtirish tartibiga rioya qilish lozim; Laboratoriya o'lchov vositalari: pH-metrlar, refraktometrlar, turbidimetrlar, spektrofotometrlar; Namuna olish vositalari: qopqoqli idishlar, kolbalar, shpitslar, namunalar uchun maxsus konteynerlar; Sifat nazorati uskunolari: termometrlar, barometrlar, og'irlik o'lchash va zichlik o'lchash asboblari; Shaxsiy himoya vositalari: laboratoriya kiyimi, qo'lqoplar, ko'zoynaklar, respiratorlar; Texnologik yordamchi vositalar: aralashtirgichlar, ultratovushli tozalagichlar, o'lchov va belgilash asboblari
---	--

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Xodim to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	"Navoiyuran" DK Iste'dodni rivojlantirish va kadrlar tayyorlash boshqarmasi boshlig'i	Narziyev Asqar Sattorovich
2	"Navoiyuran" DK Bosh geologi	Axadov Xayrulla Rofiyevich
3	"Navoiyuran" DK Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish bo'limi boshlig'i	Usanov Oybek Rayimuzoqovich
4	"Navoiyuran" DK Bosh mexanigi	Qodirov G'ayrat Sevdiyorovich
5	"Navoiyuran" DK Bosh energetigi	Raxmatov Baxtiyor Isroilovich
6	"Navoiyuran" DK Innovatsion rivojlantirish bo'limi boshlig'i	Sobirov Rasuljon Rustamovich
7	"Navoiyuran" DK Geotexnologik bo'lim boshlig'i	Namazov Ikrom Muxammadiyevich
8	"Navoiyuran" DK Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig'i	Suvonov Abror Nortajiyevich
9	"Navoiyuran" DK Resurs va zaxiralar monitoringi bo'limi boshlig'i o'rinbosari	Mirxodjayev Baxtiyor Ismailovich
10	"Navoiyuran" DK Konchilik xizmati boshlig'i	Jaynakov Akmal Po'latovich
11	"Navoiyuran" DK Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish bo'limi boshlig'i o'rinbosari	Turdiyev Ramazon Almatovich
12	"Navoiyuran" DK Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish bo'limi Mehnatni tashkil etish va me'yorlash bo'yicha muhandis	Fayzullayev Sherzod Uchqun o'g'li